

# Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir

Azimaxon Odiljon qizi Kamolova  
Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** O'qituvchilik kasbi to'xtovsiz o'sib bormoqda, takomillashmokda va yangi mazmun bilan boyimoqda. Pedagoglik mexnati o'z-mazmuni jihatida bilan chuqur dialektik mehnatdir. Pedagoglik kasbining mazmuni va xarakteri obektiv jihatdan muqarrar suratda o'zgaradi: har bir tarixiy davr o'ziga muvofiq pedagogini yaratadi va unga shu jamiyat davr uchun kerakli mutaxassis kadrlarni tayyorlash uchun mas'uliyat yuklaydi

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, pedagog, kasb, maxoratli kasb egasi, mas'uliyat, pedagoglik faoliyati, kasbiy bilimdonlik, jamoaviy birdamlik, yosh avlodni tarbiyalash, jamiyat bilan hamnafaslik

## The teaching profession is the foundation of all other professions

Azimakhan Odiljon kizi Kamalova  
Namangan State University

**Abstract:** The teaching profession is constantly growing, improving and enriching with new content. Pedagogical work is a deep dialectical work in terms of its content. The content and character of the pedagogical profession objectively inevitably changes: each historical period creates its own pedagogue and assigns to him the responsibility for training the specialized personnel necessary for the period.

**Keywords:** teacher, pedagogue, profession, professional, responsibility, pedagogical activity, professional knowledge, collective solidarity, education of the young generation, harmony with society

Dunyoda turli xil kasblar juda ko'p, o'qituvchilik dunyodagi kasblardan farq qilib, pedagoglik kasbi kishilik tarixining butun davomida har bir ijtimoiy formatsiyani qaror toptirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan eng muhim doimiy shart-sharoitlardan biridir. Buning sababi shundaki, tarbiya muayyan va eng muhim ijtimoiy ehtiyoj tariqasida juda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan bo'lib, u yosh avlodni tayyorlashni va pedagogik g'oyalar hamda mussasalarni kishilarning g'oyat zarur talabi qilib qo'ygan. O'qituvchilik kasbi to'xtovsiz o'sib bormoqda, takomillashmokda va yangi mazmun bilan boyimoqda. Pedagoglik mexnati o'z-mazmuni jihatida bilan

chuqur dialektik mehnatdir. Pedagoglik kasbining mazmuni va xarakteri obektiv jihatdan muqarrar suratda o'zgaradi: har bir tarixiy davr o'ziga muvofiq pedagogini yaratadi va unga shu jamiyat davr uchun kerakli mutaxassis kadrlarni tayyorlash uchun mas'uliyat yuklaydi. Umuman kishilik jamiyati o'z taraqqiyotida qanchalik olga qarab borsa, tarbiyaviy faoliyat xam shunchalik ko'p ilgarilashadi. Jamiyat tuzumi qanchalik yuqoriab borsa, maktab va o'qituvchining jamiyatdagi roli, ahamiyati ham shunchalik ortadi. Ijtimoiy jamiyatdaolib boriladigan tarbiya va ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshiradigan maktab kishilik jamiyatining progressiv taraqqiyoti tarixida qonuniy bir hodisadir. Xalq pedagogikasi insoniyatning butun o'tmishdagi tarixida to'plagan eng yaxshi tajribalarni yangi ijtimoiy, g'oyaviy va falsafiy asosda ijodiy va tanqidiy nuqtayi nazardan o'zlashtirib oldi. Rivojlangan jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalash va uni o'qitish nazariyasi ham ta'lim tarbiya jarayonda insoniyat madaniyati va fani tarixidagi yuksak, sifat jihatidan yangi boskichga chiqmoqda

Xo'sh pedagoglik kasbining o'ziga xos xususiyati - nimadan iborat?

Pedagoglik kasbi eng murakkab, eng qiyin, eng mas'uliyatli va eng faxrli kasblardan biridir. U boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Bu hol maktab har bir xalqning ma'naviy ruhiy madaniyatining poydevori ekanligidan kelib chiqadi.

Odamning mehnat faoliyati bir qancha xilma-xil turga ega bo'lib, ulardan har biri muayyan o'rinda turadi har biri o'ziga xos vazifa bajaradi.

- Odamlar ishlab chiqarish sohasida (ishlab chiqarish faoliyati),
- Davlatini idora qilishda (siyosiy faoliyat),
- Yangi hodisalar va yangi qonunlarni kashf etishda (ilmiy faoliyat),
- Kollektiv hayot sohasida (ijtimoiy faoliyat),
- Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishda (pedagoglik faoliyati),
- Odamning sog'ligini muxofaza qilishda (vrachlar faoliyati),
- Vatanni himoya qilishda (harbiy faoliyat),
- Ruhiiy rohat baxsh etadigan narsalarni yaratishda (badiiy va muzika sohasidagi faoliyat),
- Jamiyat tartibini saqlashda (yuridik faoliyat).
- Odamning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilish sohasida (savdo va maishiy faoliyat),
- Kishilarning madaniy ehtiyojlarini qondirish sohasida (madaniy muassasa xodimlarining faoliyati) va shunga o'xshashlarda mehnat qiladilar. Inson faoliyatining barcha turlari o'zaro bir biri bilan chambarchas bog'langan, bir-birini to'ldiradi va bir-biriga ta'sir etadi.

Xush, bizning pedagoglik kasbimizning o'zi nima?

Uning o'ziga xos xususiyatlari, fazilatlari va qiyinchiliklari nimalardan iborat?

Pedagoglik faoliyati maxsus tayyorlangan, o'sib kelayotgan yosh avlodni xayotga, mexnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, yosh

avlodni tarbiyalaydigan va ularga ta'lim berish borasida har kuni shug'ullanadigan odamlarning alohida mehnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarining kundalik va har tomonlama faoliyati rivojlangan jamiyatni quruvchi va rivojlantiruvchi, xar tamonlama sog'lom fikrlaydigan shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol shaxsni tarbiyalash, unda milliy rux va sog'lom fikr va ijobiy sifatlar tarkib toptirish vazifasi eng muhim, yuksak va shu bilan birga, o'z tabiatiga va o'z vazifalariga ko'ra, eng murakkab jarayondir. Bolalarni tarbiyalashda pedagog o'ziga xos xususiyatlari nihoyatda murakkab ekanligini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi va ko'rsatib o'tilgan mavjud qonuniyatlarga amal qilgan holda ish ko'radi. Albatta, mutaxassislar uchun tabiat sirlarini ochib berish va uning g'ayri ixtiyoriy kuchlarini inson hukmiga bo'ysundirish oddiy va oson ish emas, biroq odam tabiatining chuqur jarayonlariga o'rganib ularga ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan tasir etish hamda ularni sog'lom fikrli barkamol shaxs qilib tarbiyalash - tamomila boshkacha ish, bu haqiqatan «muammoning muammosi», butun borliqning anglashning miyasi va qalbidir. Pedagoglar tomonidan o'tkazilgan o'quv semiar va anjumanlarda ta'- kidlab o'tilganidek: «Yangi inson tarbiyalash zo'r kuch-g'ayrat, oqilona ish olib borishni talab qiladi. Axir, biz jonli kishilar orasida ishlashimiz kerak, kishi hamma narsani o'ylab qiladi, undagi hamma narsa bir-biri bilan o'zaro bog'langandir. Lekin bu o'zaro bog'liqlik mashina qismlari o'rtasidagi bog'liqlikka o'xshamaydi. Insondagi o'zaro bog'liqlik juda murakkabdir»<sup>1</sup>.

O'qituvchilar ko'z o'ngida har kuni dunyoni o'zgartirishga qodir insonlar va jamiyatning kelajagini belgilovchi shaxslar olam go'zalliklarini yaratuvchilar, qarama-qarshilikka, noma'lumlikka to'lgan bolalar dunyosi turadi.

Bolalar xalqimizning kelajagidir, o'qituvchilar esa insoniyatning ana shu ajoyib kelajagini tarbiyalamoqdalar. Bolalar esa o'zlarining har bir o'qituvchilaridan qanchadan-qancha bilim, ko'nikma, malaka, chidam, iroda kuchi va mustaxkam xarakter talab etadilar. Shuning uchun xam atoqli chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592- 1670) "O'qituvchining roli shunchalik faxrliki, yer yuzidagi kasblarning hech biri ham bu qadar faxrli emas!" deb aytgani bejiz emas, Bundan tashqari Rus pedagogikasining yirik mutafakir pedagoglaridan - K.D.Ushinskiy (1824-1870) o'zining «О пользе педагогического литературного» nomli asarida: «Tarbiyaning muvaffaqiyatli chiqishi batamom tarbiyalanuvchilar bilan bevosita ish ko'radigan tarbiyachining o'ziga bog'liqdir (o'qitish - tarbiya vositalaridan biridir) degan otashin gaplarni yozgan edi. K.D.Ushinskiy bu yerda tarbiyaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritadi, ammo tarbiya imkoniyatlarini inson hayotining real voqeligiga aylantirish esa o'qituvchining mohirona faoliyatiga bog'liqdir. U tarbiyachidan sabr-toqat, tug'ma qobiliyat, o'quv, maxsus bilim talab qilinishini ham kursatib o'tadi. To'g'ri, tarbiyalash uchun fanni bilish lozim. Odamni tarbiyalashga, uning tabiatini takomillashtirishga asoslangan pedagoglik faoliyati dastavval

shaxsning aqliy, g'oyaviy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy kuch hamda xususiyatlarini tarkib toptiradi. O'qituvchining tarbiyaviy faoliyati million-million o'g'il va qiz bolalarning, yigit va qizlarning qarashlari, e'tiqodi va hatti-harakatlari birligini rivojlantiradigan va mustakkamlaydigan tashkilotchilik va muvofiqlashtirish faoliyatidir.<sup>2</sup>

Xulosa qiladigan bo'lsak pedagoglik kasbining juda muhim xususiyati shundan iboratki, uning barcha vakillari insonparvarlik xarakterdagi ishni bajaradi.

Shuning uchun o'qituvchilik kasbi o'zining ilmiy salohiyati bilan O'qituvchi olib boradigan o'quv-tarbiya ishlarining fan bilan uzviy bog'lanishi, uning muvaffaqiyatga erishuvi, uning uzluksiz mehnatining eng birinchi asosini tashkil atadi. nihoyatda ko'p tomonlama va murakkabdir. Har biri o'z yo'nalishi va jarayonlari jixatidan qiyindir. Bu ayniqsa hozirgi davrda haqiqatdir, chunki hozir ilgari misli ko'rilmagan ilmiy-texnika revolutsiyasi yuz bermoqda, ilm-fan yutuqlari doimo bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanmoqda, «fanni bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirish odamning mehnat faoliyati xarakterini tubdan o'zgartirib yuboradi va jamiyatda faoliyat yurutayotgan axoli uchun qulayliklar yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.

2. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.

3. Nishonova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.

4. кизи Ахмедова, Д. С., & кизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОҒИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 413-416.

5. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.

6. Bannayev, M. S. (2022). O'zbeksitonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. *Science and Education*, 3(6), 701–703  
Bannayev, M. S. (2022). O'zbeksitonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. *Science and Education*, 3(6), 701–703

7. Bannayev, M. S. (2021). O'zbekistonda maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari. *Science and Education*, 2(7), 293–297.

8. KPSS Markaziy Komitetining partiya XXII sezdiga hisoboti, KPSS XXII sezdining materiallari. Uzdavnashr, 1962-yil, 122- 123. betlar.

9. K. D. Ushinskiy. Tanlangan pedagogik asarlar. Ukuvped- davnashr, Toshkent - 1959, 116-bet

10. A. Fadeyev, «Yosh gvardiya». UzSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent. 1958, 194- bet.